

Hakimova Nargiza Supxonovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
pedagogika falari
falsafa doktori (PhD), dotsent

LIFELONG LEARNING KONSEPSIYASI: PEDAGOGIK FAOLIYATDA INNOVATSIYALAR VA KASBIY TARAQQIYOT

Annotatsiya. Ushbu maqolada uzluksiz kasbiy rivojlanish (UKR) tizimining mohiyati, "lifelong learning" – hayot davomida ta'lim olish tamoyilining zamonaviy ta'lim va kasbiy faoliyatdagi o'rni chuqur tahlil etiladi. Muallif pedagog kadrlar salohiyatini oshirishda doimiy o'qish va o'zini takomillashtirish zarurati, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish va uzluksiz malaka oshirish muhitini yaratishning dolzarbligini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: uzluksiz kasbiy rivojlanish, lifelong learning, pedagogik kompetensiya, innovatsion ta'lim, raqobatbardoshlik, amaliy ko'nikma, motivatsiya, o'z-o'zini rivojlantirish

THE CONCEPT OF LIFELONG LEARNING: INNOVATIONS AND PROFESSIONAL DEVELOPMENT IN PEDAGOGICAL ACTIVITIES

Annotation. This article deeply analyzes the essence of the system of continuous professional development (CPD), the role of the principle of "lifelong learning" in modern education and professional activity. The author substantiates the need for continuous learning and self-improvement in increasing the potential of pedagogical personnel, the relevance of introducing innovative technologies into the educational process and creating an environment for continuous professional development.

Keywords: continuous professional development, lifelong learning, pedagogical competence, innovative education, competitiveness, practical skills, motivation, self-development

КОНЦЕПЦИЯ НЕПРЕРЫВНОГО ОБУЧЕНИЯ: ИННОВАЦИИ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В статье глубоко анализируется сущность системы непрерывного профессионального развития (НПР), роль принципа "обучения на протяжении всей жизни" в современном образовании и профессиональной деятельности. Обосновывается необходимость непрерывного обучения и самосовершенствования в повышении потенциала педагогических кадров, актуальность внедрения инновационных технологий в образовательный процесс и создания условий для непрерывного профессионального развития.

Ключевые слова: непрерывное профессиональное развитие, непрерывное обучение, педагогическая компетентность, инновационное образование, конкурентоспособность, практические навыки, мотивация, саморазвитие.

Kirish Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Respublikada uzluksiz ta'lim tizimining tuzilmasi va mazmunini zamonaviy fan yutuqlari va ijtimoiy tajribaga tayangan holda tubdan isloh qilishni ko'zda tutadi. Buning uchun, avvalo, ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini ilg'or, ilmiy-metodik jihatdan asoslangan yangi va zamonaviy metodika bilan ta'minlash, sifatli ta'lim muhitini yaratish uchun mas'ul bo'lgan o'qituvchi-pedagoglarni zamon talabi va jamiyat ehtiyojlari asosida kasbiy rivojlantirish, ularni o'qitish va ta'lim berish, shuningdek, "lifelong

learning” tamoyili asosida uzluksiz malakasini oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida bilim va kasbiy ko‘nikmalar tezda eskiradi.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar. Yangi sharoitlar va kasbiy talablar insonni doimiy o‘rganishga undaydi. Shu bois, “Lifelong learning” — hayot davomida o‘qish konsepsiyasi zamonaviy ta‘lim tizimining poydevoriga aylanmoqda. Ayniqsa, ta‘lim sohasida faoliyat yurituvchi pedagoglar uchun bu yondashuv o‘z kasbida professional va ijodiy rivojlanish, shuningdek, raqobatbardosh kadr sifatida shakllanishda muhim rol o‘ynaydi. Uzluksiz kasbiy rivojlanish shaxsiy taraqqiyotdan tortib, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishgacha bo‘lgan keng ko‘lamli ijobiy ta‘sirni ta‘minlaydi. Bu jarayon o‘z-o‘zini anglash, kompetensiyalarni rivojlantirish, kasbiy yangiliklarga moslashuvchanlik va mehnat bozorida muvaffaqiyat qozonish imkonini beradi. Hozirgi kunda o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali ta‘lim sifatini oshirish, jahon tajribasi va milliy ustuvorlik asosida ta‘lim berishning amalga oshirilishi muhim vazifalardan biridir.

Bu masala dunyo ta‘lim tizimida qizg‘in muhokama qilinmoqda, xususan, ta‘lim XXI asrning jahon miqyosidagi barqaror taraqqiyotni ta‘minlovchi asosiy omil sifatida e‘tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta‘lim konsepsiyasida “butun hayot davomida sifatli ta‘lim olishga imkoniyat yaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Yevropa ittifoqi Komissiyasining pedagogik ta‘limni takomillashtirish bo‘yicha takliflari uzluksiz kasbiy rivojlanishning “hayot davomida o‘qish” tamoyilini yaqqol namoyish qiladi. Unga ko‘ra – dastlabki uch yil ichida kasbiy faoliyatga olib kirish dasturlari; – ko‘proq tajribaga ega bo‘lgan hamkasblarning maslahat berishi; – o‘qituvchilarni ishlayotgan maktablarining rivojlanish maqsadlaridan kelib chiqib ularning malaka oshirishga bo‘lgan ehtiyojlari muhokamasi va malaka oshirish dasturlari; – keyinchalik norasmiy va informal o‘quvlar orqali olingan kompetensiyalarni tan olish sharti bilan uzluksiz kasbiy rivojlanish uchun shart-sharoitlarni yaratish; – uzluksiz kasbiy rivojlanish imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyatining mavjudligi.

Respublikamizda ham “insonning butun hayoti davomida ta‘lim olishi” ta‘lim sohasidagi asosiy prinsiplar sifatida belgilangan. Bularning barchasi yillar davomida kattalar ta‘limi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan “lifelong learning” g‘oyasini keltirib chiqardi. “Lifelong learning” tamoyili asosida uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini yaratishning dolzarbligini yurtimizda ilk marta O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda qabul qilingan “Ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son qarorida dolzarb vazifa sifatida qayd etilishi bilan ham izohlashimiz mumkin:

- xalq ta‘limi xodimlarining malaka oshirish jarayonini “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida uzluksiz malaka oshirishni nazarda tutuvchi tizimga aylantirish;
- xalq ta‘limi xodimlarining kasbiy ehtiyojlarini tashxis qilish asosida ularning individual rivojlanish dasturini ishlab chiqish va dasturga muvofiq malakasini oshirish tartibini amaliyotga kiritish;
- xalq ta‘limi xodimlarining malaka oshirish jarayoniga kredit-modul tizimini bosqichmabosqich joriy qilish;
- xalq ta‘limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish, har bir xodimning malaka oshirish jarayonlarini monitoring qilish va shaxsiy hisobini yuritish imkoniyatini ta‘minlovchi “Uzluksiz kasbiy ta‘lim” maxsus elektron platformasini ishga tushirish.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Ko‘rinadiki, mavjud holat tahlili boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini “lifelong learning” tamoyili asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirish bilan bog‘liq quyidagi dolzarb vazifalarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi: – mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g‘oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo‘lgan, intellektual va ma‘naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash; – ta‘lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo‘lishlari uchun ularda zarur ko‘nikma va bilimlarni shakllantirish; – dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta‘lim tizimini yo‘lga qo‘yish; – ta‘lim-tarbiya muassasalarining rahbar xodimlari, pedagog va murabbiylari, professor-o‘qituvchilari va ilm-fan sohalari vakillarining jamiyatimizdagi o‘rni va maqomini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va faoliyat samaradorligiga

qarab moddiy rag'batlantirish; – bilimga asoslangan iqtisodiyotning ehtiyoj va talablariga muvofiq ta'lim va kasbiy tayyorgarlikning yangi modellarini ishlab chiqish va joriy qilish, (bunda davriy malaka oshirishdan farqli ravishda) ijtimoiy va iqtisodiy muvofiqlik imkoniyatiga ega bo'lgan "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida uzluksiz malaka oshirish tizimini takomillashtirib borish. Ushbu konsepsiyaning dastlabki g'oyalari o'tgan asrning o'rtalarida paydo bo'lgan va hozirda turli sohalarining ko'plab xodimlari doimiy ravishda uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarida qatnashadilar.

Hayot davomidagi ta'lim – bu ham kasbiy, ham shaxsiy ehtiyoj va sabablarga ko'ra bilim va ko'nikmalarni doimiy ravishda yangilash konsepsiyasi. Uzluksiz ta'lim konsepsiyasi yoshi va faoliyat sohasidan qat'iy nazar o'rganish, shuningdek, har qanday ehtiyojlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirish imkoniyatini beradi. Ushbu konsepsiyani tushunish va hayot davomida o'qish iqtisodiyot va butun jamiyat uchun foydali ta'sir ko'rsatadi.

Pedagoglar uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish quyidagi ustunliklarni beradi:

- Kasbiy kompetensiyaning yangilanishi: Bilim va texnologiyalardagi o'zgarishlarga moslashish imkonini yaratadi.
- Pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish: Yangi metodlar va texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish.
- Ijodiy yondashuvni rivojlantirish: Kreativ fikrlash, muammoli vaziyatlarga innovatsion yechimlar topish salohiyatini oshiradi.
- O'quvchilarning bilim olish motivatsiyasini oshirish: O'z ustida ishlovchi o'qituvchi o'quvchilarda ham o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

Misol uchun, ochiq onlayn kurslar (MOOC), vebinarlar, pedagogik simulyatsiyalar, reflektiv portfoliolar pedagoglarni doimiy o'sishga undovchi vositalardir.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari quyidagi yo'nalishlarda faoliyat yuritishi zarur:

1. Bo'lajak pedagoglarni uzluksiz o'qishga tayyorlash (lifelong learner mindset);
2. Kreativ va innovatsion kompetensiyalarni shakllantirish;
3. Kasbiy refleksiyaning rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodikalar tatbiqi;
4. Hamkorlik asosida tajriba almashish loyihalari (mentorlik, tarmoq markazlari);
5. Raqamli pedagogik vositalardan faol foydalanish (interaktiv platformalar, AI-assistentlar).

Bu orqali nafaqat shaxsiy, balki jamiyat darajasida ta'lim samaradorligi ortadi.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish — bu nafaqat shaxsiy va kasbiy o'sish omili, balki zamonaviy jamiyatning iqtisodiy, texnologik va madaniy taraqqiyotining negizi hisoblanadi. "Lifelong learning" tamoyili asosida tashkil etilgan ta'lim tizimi o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini chuqurlashtirish, o'zini anglash va jamiyatda faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Shu sababli, uzluksiz kasbiy rivojlanishni strategik rejalashtirish, ilg'or tajribalarni joriy etish, pedagoglarni rag'batlantirish va innovatsion o'qitish metodlarini tatbiq qilish ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi.

O'qituvchilarning uzluksiz malakasini oshirish, ularni uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida umrbod o'qish ("lifelong learning") tamoyilini qo'llashga doir xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqot ishlarining tahlilini umumlashtirish hamda kuzatishlarimiz natijasida "hayot davomida o'qish" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berdik: "Hayot davomida o'qish" (yoki butun umr davomida o'rganish) – bu yoshi va faoliyat sohasidan qat'iy nazar, insonning shaxsiy yoki kasbiy manfaatlariga asoslangan holda doimiy ravishda yangi bilimlarni izlash va to'plash konsepsiyasi.

Xulosa. Amalda ushbu konsepsiya insonni shaxsiy o'sishga undaydi, shuningdek, mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshiradi. "Hayot davomida o'qish" – bu umrbod o'qitish faoliyati. Bu shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan va ushbu rivojlanish uchun qulay sharoitlar yaratishga asoslangan. Har qanday (yosh, ijtimoiy va tashkiliy) cheklovlar yo'qligi sababli, ushbu global ta'lim yondashuvi tanlangan yo'nalish bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarni doimiy ravishda o'zlashtirishni va natijada shaxsiy ta'lim tizimini nazarda tutadi. Bu jarayonda tugallangan ta'lim mavjud emas, u umr bo'yi davom etadi, shu bilan birga zamonaviy axborot jamiyatidagi barcha yangiliklar va o'zgarishlarga o'z vaqtida javob berishga imkon beradi. Uning

- 114** konsepsiyasi – bu doimiy ravishda o‘rganish va rivojlantirish, eskirgan g‘oyalar va yondashuvlarni yangi usullar va ilg‘or qarashlar bilan almashtirish, texnologik rivojlanishning barcha yutuqlaridan foydalanishni anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23 sentabr, O‘RQ637-son. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son qarori.
3. Inncheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education ang lifelong learning for all (Word Edutezcation Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).
4. UNESCO. Learning: The Treasure within. UNESCO/HMSO, London. 1996.
5. Alkarov E.M. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida pedagog kadrlar uzluksiz kasbiy rivojlanishini boshqarish samaradorligini oshirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: 2021. – 60 b.
6. N.Raxmanqulova, M.Yuldashev, A.Baxramov, M.Ahmedov, T.Raimov, A.Ametov. Xalq ta’limi xodimlarining malaka oshirish kurslaridan keyingi faoliyatlarini pedagogik qo‘llabquvvatlash.– T.: Lesson Press, 2018. – 160 b.